# 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida jami 2883,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 117,0 % ni tashkil qildi.







Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 559,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 685,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1990,5 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 69,0 % ini tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 96,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 333,2 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,2 % ni tashkil qildi.

***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*





# Iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha qurilish ishlari

*(ishlar hajmi, mlrd. so‘m)*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,0 % ni tashkil etadi.





Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 23,7 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,3 % to‘g‘ri keldi.



# Qurilsh ishlarining faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

*(jamiga nisbatan, % da)*

## 2020- yil yanvar-dekabr

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | Bino va inshootlarni qurilishi |
|---|---|---|
| 6,6 | 24,4 | 69,0 |

## 2021- yil yanvar-dekabr

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurilishi | Bino va inshootlarni qurilishi |
|---|---|---|
| 5,3 | 23,7 | 71,0 |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

*(mlrd. so'm)*

| | Jami qurilish ishlari | shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik korxona va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| **Sirdaryo viloyati :** | **2883,0** | **559,3** | **1990,5** | **333,2** |
| **Guliston sh.** | **828,1** | **18,7** | **723,0** | **86,4** |
| **Shirin sh.** | **193,5** | **94,5** | **92,9** | **6,1** |
| **Yangiyer sh.** | **163,3** | **0,6** | **148,2** | **14,5** |
| ***tumanlar :*** | | | | |
| **Boyovut** | **146,8** | **4,9** | **111,5** | **30,4** |
| **Guliston** | **311,8** | **61,9** | **222,7** | **27,2** |
| **Mirzaobod** | **393,7** | **90,4** | **274,9** | **28,4** |
| **Oqoltin** | **118,9** | **0,3** | **103,7** | **14,9** |
| **Sardoba** | **56,2** | **0,2** | **37,5** | **18,5** |
| **Sayxunobod** | **78,4** | **0,5** | **59,0** | **18,9** |
| **Sirdaryo** | **384,0** | **200,1** | **114,6** | **69,3** |
| **Xovos** | **208,3** | **87,2** | **102,5** | **18,6** |

## Hududlar kesimida qurilish ishlari o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)*




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘sish sur’ati 92,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 176,9 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘sish sur’ati Shirin shahrida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 213,0 % ni tashkil qildi.



# Qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo‘yicha qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan, % da)*




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1990,5 mlrd. so‘m yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 69,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 96,0 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 559,3 mlrd. so‘m yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 19,4 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 685,8 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 333,2 mlrd. so‘m yoki jami qurilish ishlarining 11,6 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,2 % ni tashkil qildi.



# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan, % da)*







**Davlat mulki** **Nodavlat mulk**

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 215,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,5 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga ko‘paydi.





Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 2667,9 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 92,5 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.



# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan, % da)*




Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 28,7 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Mirzaobod tumaniga 13,7 %, Sirdaryo tumaniga 13,3 %, Guliston tumaniga 10,8 % va Xovos tumaniga 7,2 % dan to‘g‘ri keldi.



**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi.**

**Aloqa telefoni: (67) 236-86-27**

.